

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMALXODJAYEVA ZULAYXO ADILOVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA HUQUQIDA OILA
A’ZOLARINING HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Kamalxodjayeva Zulayxo Adilovna

Davlat mulkini xususiylashtirishni fuqarolik-huquqiy tartibga solish.....3

Камалходжаева Зулайхо Адиловна

Совершенствование правового статуса членов семьи в семейном праве Республики Узбекистану.....27

Kamalkhodjaeva Zulaykho Adilovna

Improving the legal status of family members in family law of the Republic of Uzbekistan.....49

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works54

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KAMALXODJAYEVA ZULAYXO ADILOVNA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA HUQUQIDA OILA
A’ZOLARINING HUQUQIY MAQOMINI TAKOMILLASHTIRISH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2026-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Yu2145-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharaxmetova Umida Shaakbarovna
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aminjanova Matluba Ahmedovna
yuridik fanlar doktori, professor

Saydivaliyeva Xurshida Xodjiakbarovna
yuridik fanlar doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta
tayyorlash va malakasini oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 9-oktabr soat 15:00 da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1527-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 17-sentabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 17-sentabr 21-raqamli reyestr bayonnomasi).

B.K. Xodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

E.X. Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Sh.X. Fayziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda oila a'zolari maqomini huquqiy tartibga solish global ijtimoiy-demografik o'zgarishlar, oilaviy tuzilmalarning evolyutsiyasi va huquqiy tizimlarning oilaviy munosabatlarning yangi shakllariga moslashish zarurati bilan belgilangan tub yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti¹ ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda dunyodagi o'rtacha uy xo'jaligi hajmi 1980-yillardagi taxminan 4,9 kishidan 2024-yilda 3,1–3,2 kishiga tushib qoldi, bu esa kengaytirilgan oilaviy tuzulmalardan ixcham oila tuzilmalarga qarab kechayotgan global o'tishni aks ettiradi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti va YUNISEF tomonidan 2024-yilda chop etilgan qo'shma hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 0 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 1,4 milliard bola ijtimoiy himoyaning biron-bir shaklidan mahrum bo'lib, qashshoqlik, yetarli ovqatlanmaslik va kamsitishga nisbatan zaif ahvolda qolmoqda². Ushbu statistika oila a'zolari maqomini huquqiy tartibga solishdagi muammolarning hali-hamon saqlanib kelayotganini, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan himoyasiz toifalar (bolalar, ayollar, keksa shaxslar) huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligini hamda jamiyatda oilaviy munosabatlarning yangilanishini inobatga olgan holda oila a'zolarining barcha toifalari huquqiy maqomini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda oila a'zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish maqsadida “bolaning eng ustun manfaatlari” konsepsiyasi, funksional ota-onalik doktrinasi, nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan birga yashash munosabatlarini huquqiy tartibga solishning plyuralistik modeli, bola manfaatlarining mustaqil vakili instituti, aka-uka va opa-singillar huquqlarini oilaviy huquqlarning mustaqil toifasi sifatida e'tirof etish konsepsiyasi kabi huquqiy institutlar va doktrinalar faol rivojlanmoqda. Shu bilan birga, alohidalik elementlarini o'zida mujassam etgan er-xotinlarning umumiy mulki rejimining modifikatsiyalashgan modellari, oilaning kvazi-subyektivligi konsepsiyasi, “rivojlanib borayotgan qobiliyatlar” prinsipi asosida voyaga yetmaganlarning bosqichma-bosqich huquq layoqati konsepsiyasi, oilani belgilashda individualistik va kollektivistik yondashuvlarning o'zaro nisbati, milliy huquqiy an'analarni inson huquqlari bo'yicha universal standartlar bilan uyg'unlashtirish mexanizmlari, oilaviy nizolarni mediatsiya va muqobil usullar orqali hal etish institutlarini rivojlantirish, shuningdek aliment majburiyatlarini takomillashtirish hamda ularning eng kam miqdorini yashash minimumiga bog'lash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda oila a'zolarining huquqiy maqomini takomillashtirish hamda oila institutini mustahkamlash masalalariga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi

¹ World Population Prospects 2024: Summary of Results / United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. – New York : United Nations, 2024. – 58 p. // <https://social.desa.un.org/publications/world-population-prospects-2024-summary-of-results>

² <https://www.unicef.org/press-releases/14-billion-children-globally-missing-out-basic-social-protection-according-latest>

Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2025-yil 15-may – Xalqaro oila kuni munosabati bilan mamlakat fuqarolariga yo‘llagan tabrigida: “Oila – jamiyatning tayanchi, ma’naviyat beshigi va avlodlar davomiyligining yorqin timsolidir. Xalqimiz azaldan oilani muqaddas qadriyat, barqarorlikning mustahkam poydevori deb bilgan», – deya ta’kidlagan.”³. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining 1998-yilda qabul qilingani hamda oilaviy qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, ushbu sohada ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, amaldagi qonunchilikda nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmasdan faqat diniy nikoh asosida yashayotgan reproduktiv yoshdagi er-xotinlarning huquqiy maqomi yetarli darajada tartibga solinmaganligi, kengaytirilgan oila a‘zolarining huquqiy maqomiga oid normalarning to‘liq shakllantirilmaganligi, alimentning eng kam miqdori bolalarning real moddiy ehtiyojlariga to‘liq mos kelmasligi, aliment majburiyatlarini majburiy ijro etish tizimining samaradorligi pastligi (aliment oluvchilarning atigi 23,1 foizi alimentni to‘liq hajmda va belgilangan muddatlarda olmoqda), shuningdek, oila a‘zolarining shaxsiy nomulkiy huquqlarini sud tartibida himoya qilishning protsessual mexanizmlari yetarli darajada takomillashmaganligi shular jumlasidandir.

Mazkur dissertatsion tadqiqot muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (2023), O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksida (1998), O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida (1995, 1996), O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi (2008), “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari (2019), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6275-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3808-sonli Qarorida va ushbu sohadagi boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda oila a‘zolarining huquqiy maqomi muammosi milliy huquqshunoslar tomonidan alohida ilmiy maqolalar, tezislar va monografiyalarning bo‘limlari shaklida o‘rganilgan. Jumladan, F.M. Otaxo‘jayev, G.S. Inamjanova, I.B. Jurayeva, U.Sh. Sharaxmetova, X.B. Abduraxmonova, X.X. Saydivaliyeva, D.I. Babajanova, E.X. Egamberdiyev o‘z ishlarida oila va nikoh tushunchalarini aniqlash hamda ularning huquqiy oqibatlariga oid masalalarni, nafaqa majburiyatini, ota-onalik va er-xotinlik maqomini, oilaviy huquqlarni amalga oshirishning muammolarini ko‘rib chiqqan⁴.

³ <https://www.uzdaily.uz/ru/mirziyoyev-obrazovanie-kliuch-k-budushchemu-uzbekistana/>

⁴ Отахўжаев Ф.М. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуқи. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 380 б.; Инамджанова Г.С. Ота-оналар ва болаларнинг ҳуқуқларини оила ҳуқуқий ҳимоя қилиш муаммолари. дисс. ...-ю.ф.н: Тошкент.:2005. 152 б.; Джураева И.Б. Личные и имущественные права супругов по национальному

Oila a'zolarining huquqiy maqomi muammosi MDH mamlakatlaridagi tadqiqotchilarning ishlarida keng o'rganilmoqda. Bunga misol sifatida M.V. Antokolskaya, T.A. Gurko, I.S. Danilova, A.N. Levushkin, A.M. Nechayeva, D.N. Nikitin, L.M. Pchelintseva, N.N. Tarusina⁵ kabi tadqiqotchilarning ishlarini keltirish mumkin. Xorijiy mamlakatlarda oila a'zolarining huquqiy maqomining dolzarb muammolarini tadqiq etgan olimlar sifatida esa A. Alstott, Dieter Martiny, S. Gilmore, L. Glennon, Jeremy Loudenback, C.G. Joslin, D. NeJaime, Fabio Martinenghi, C. Mol ni ko'rsatish mumkin⁶.

Shu bilan birga, oila huquqining alohida institutlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning sezilarli hajmiga qaramay, milliy huquqshunoslikda hozirgi kunga qadar oila a'zolari huquqiy maqomini tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan, nazariy asoslardan tortib oilaviy huquqiy munosabatlar subyektlarining ayrim toifalariga oid muammolargacha bo'lgan, milliy o'ziga xoslik va inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlarini inobatga olgan holda yorituvchi kompleks monografik tadqiqot mavjud emas.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi dissertatsiya bajarilgan Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan bo'lib, "Oila qonunchiligini isloh qilish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida oila a'zolari maqomini huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga yo'naltirilgan nazariy qoidalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

законодательству и по международному частному праву: Автореф. Дисс. ... канд.юрид.наук. - Т., 2006. - 24 с.; Sharaxmetova U.Sh. Oilaviy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni takomillashtirish // Yurid. fan. dok. ... diss. (DSc). - T.: 2025. 278 b.; Абдурахмонова Х.Б. Халқаро хусусий ҳуқуқда ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларнинг тартибга солиниши: Юрид. фан. докт. ... дис. - Т., 2016. - 284 б.; Сайдивалиева Х.Х. Oilaviy muносабатларни шартномавий ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш. Юрид.фан.докт. (DSc) ... дисс., Т.: 2025. 327 с.; Бабажанова Д.И. Ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш шакллари оилавий-ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. фал. док (PhD). дис. ... - Тошкент: 2020.; Эгамбердиев Э.Х. Совершенствование правовых основ расторжения брака в Республике Узбекистан // дисс. ... докт.философ. по юрид. наук. - Нукус.: 2021. С. 200.

⁵ Антокольская М. В. Семейное право [Электронный ресурс]: учебник / М. В. Антокольская. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Норма : ИНФРА-М, 2013. - 431 с.; Гурко Т.А. Теоретические подходы к изучению семьи. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Ин-т социологии РАН, 2016. - 210 с.; Данилова И.С. Институт приемной семьи в системе форм устройства детей, оставшихся без попечения родителей в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. - М.: 2015. - 153 с.; Левушкин А.Н. Правовое регулирование имущественных отношений в семье по законодательству Российской Федерации. Дисс. ... канд.юрид.наук. - Казань. 2004. 220 с.; Нечаева А.М. Семейное право: учебник для вузов / А.М. Нечаева. 8-е ... М.: ИНФРА-М, 2017. С. 195.; Никитин Д.Н. Правовое регулирование личных неимущественных отношений супругов: вопросы теории и практики. Дисс. ... канд.юрид.наук. - Курс, 2013. - 184 с.; Пчелинцева, Л.М. Семейное право России: учебник / Л.М. Пчелинцева. - 6-е изд., перераб. - М.:Норма:Инфра-М, 2010.; Тарусина, Н.Н. Семейное право: Очерки из классики и модерна: монография / Н.Н. Тарусина; Яросл. гос. ун-т. - Ярославль: ЯрГУ, 2009. - 616 с.

⁶ Alstott, Anne L. Private Tragedies? Family Law as Social Insurance // Harvard Law & Policy Review. 2010. Vol. 4. No. 1. P. 3-30.; Dieter Martiny, 'Der neue deutsch-französische Wahlgüterstand-Ein Beispiel optionaler bilateraler Familienrechtsvereinheitlichung' (2011) 19 ZEuP 577; Gilmore, S., & Glennon, L. (2018). Hayes and Williams' Family Law (6th Edition). Oxford University Press; Oxford; Jeremy Loudenback. Sibling Connections: States Take Different Approaches to Preserving Family Bonds in Foster Care. The Imprint. 2023; Joslin, C. G., & NeJaime, D. (2023). How Parenthood Functions. Columbia Law Review, 123(2), 319-434; Martinenghi, Fabio, De Facto Marriage: When Ending a Cohabitation Costs as Much as a Divorce (October 16, 2020). Life Course Centre Working Paper No. 2020-23; Mol, C. (2019). Children's Representation in Family Law Proceedings: A Comparative Evaluation in Light of Article 12 of the United Nations Convention on the Rights of the Child. The International Journal of Children's Rights, 27(1), 66-98.

Tadqiqotning vazifalari:

oila a'zolarining huquqiy maqomi tushunchasi, huquqiy tabiati va tarkibini tadqiq etish;

O'zbekiston Respublikasining oilaviy qonunchiligida oila a'zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishning tarixiy rivojlanishini tadqiq etish;

oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlariga ilmiy-amaliy tavsif berish, ularning huquqiy tabiati va amalga oshirilishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

oila a'zolarining alohida toifasi hisoblangan voyaga yetmagan bolalar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish;

er-xotinlarning huquqiy maqomi, shu jumladan ularning mol-mulkining qonuniy huquqiy rejimi hamda amalda vujudga kelgan nikoh munosabatlarining huquqiy xususiyatlarini tahlil qilish;

boshqa oila a'zolari (bobo, buvi, aka-uka, opa-singillar, amalda tarbiyalovchi shaxslar)ning huquqiy maqomi hamda ularni ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish;

oila a'zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish bo'yicha xalqaro tajriba hamda xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarini o'rganish;

oilaviy munosabatlar sohasidagi huquqiy tartibga solish va huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni aniqlash hamda mamlakat oilaviy qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti O'zbekiston Respublikasida oila a'zolarining huquqiy maqomini belgilash va amalga oshirishda vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasining oilaviy qonunchiligi, sudlarning huquqni qo'llash amaliyoti, xorijiy davlatlar qonunchiligi va tajribasi, shuningdek, oila huquqi sohasidagi konseptual yondashuvlar hamda ilmiy-nazariy qarashlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida tizimli-tahlil metod, dialektik metod, rasmiy-yuridik metod, tarixiy-huquqiy metod, qiyosiy-huquqiy metod, rasmiy-mantiqiy metod, statistik metod, sotsiologik metod qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxslarning yoki vasiylikdagi shaxslarning yashash joyi ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onasi (yolg'iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki vasiylarining yashash joyi, o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning yoki homiylikdagi shaxslarning yashash joyi esa ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onasi (yolg'iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yashash joyi deb hisoblanishi asoslantirilgan;

zo'ravonlikdan jabrlangan yoki unga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi mavjud bo'lgan bolani uning ota-onasidan (ulardan biridan) yoki uning qaramog'ida bo'lgan boshqa shaxslardan bolaning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid mavjud

bo'lgan hollarda ajratib olish bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning individual choralaridan biri hisoblanishi asoslantirilgan;

ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, bolaga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish, uning to'laqonli va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bolaning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy mansublik ehtiyojini qondirishiga ko'maklashishi, shuningdek bolalarni tarbiyalash usullari ularni befarqlik, shafqatsiz, qo'pol, inson qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, haqorat qilish yoki ekspluatatsiya qilishni istisno etishi lozimligi asoslantirilgan;

bolani olib qo'yish va uni boshqa shaxsga (shaxslarga) topshirish bilan bog'liq ijro harakatlari maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilishi mumkin emasligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

muayyan huquqiy munosabatlarda (ijtimoiy ta'minot, uy-joy munosabatlari, soliqqa tortish) oilaga huquq subyektliligining ayrim elementlarini e'tirof etish, shuningdek bunday huquq subyektliligining holatlari va chegaralarini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslab berildi;

bola va uning qonuniy vakillari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan sud jarayonlarida bola manfaatlarining mustaqil vakili institutini joriy etish zarurligi asoslandi;

ro'yxatdan o'tkazilgan nikohning imtiyozli huquqiy maqomini saqlab qolgan holda, uzoq muddatli faktik nikoh munosabatlarining cheklangan huquqiy oqibatlarini, jumladan mol-mulkka qo'shilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan hissa uchun kompensatsiya olish huquqini, umumiy farzandlar mavjud bo'lgan hollarda esa cheklangan aliment majburiyatlarini qonunchilikda e'tirof etish zarurligi asoslab berildi;

voyaga yetmagan bolalar uchun alimentning eng kam miqdorini amaldagi mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga bog'lash o'rniga, bolaning yashash minimumiga bog'liq holda qayta ko'rib chiqish, ya'ni uni yashash minimumining kamida 50 foizi miqdorida belgilash zarurligi asoslandi. Chunki amaldagi 26,5 foizlik mezon hozirgi iqtisodiy sharoitlarda bolaning real ehtiyojlarini ta'minlashga yetarli emas;

ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda hamda ota-ona ajrashganidan keyin bolalarning yashash joyini belgilashda aka-uka va opa-singillik aloqalarini saqlab qolish maqsadga muvofiqligi prezumpsiyasini qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslandi;

aliment olish huquqiga ega bo'lgan faktik tarbiyachilar sifatida e'tirof etiladigan shaxslar doirasini kengaytirish, bunda tarbiyalashning minimal muddatini besh yildan uch yilgacha qisqartirish hamda uzluksizlik, munosib tarbiya xususiyati, besh yillik muddatga rioya etish imkoni bo'lmaganligining uzrli sabablari va barqaror oilaviy munosabatlar mavjudligi kabi shartlar majmuini nazarda tutish zarurligi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy bilishning tegishli metodologiyasidan foydalanilganligi, xorijiy davlatlar tajribasining milliy qonunchilikning normativ-huquqiy hujjatlari bilan qiyosiy-huquqiy tahlil qilinganligi, milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hujjatlari hamda tavsiyalari tizimli ravishda o'rganilganligi, O'zbekiston Respublikasi sudlarining huquqni qo'llash amaliyoti tadqiq etilganligi, shuningdek ishlab chiqilgan qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflarning oilaviy munosabatlarda inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlariga hamda O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining milliy xususiyatlariga muvofiqligi jihatidan nazariy va amaliy jihatdan asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ilmiy-nazariy tahlil asosida olingan natijalardan oila a'zolarining huquqiy maqomi, oila va oila a'zosi tushunchalarini aniqlash, voyaga yetmagan bolalar, er-xotin hamda boshqa oila a'zolarining huquqiy maqomini tartibga solishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, qonun ijodkorligi faoliyatida, huquqni qo'llash amaliyotida, qonunchilik normalarini sharhlashda, shuningdek qonun hujjatlariga sharhlar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan qonun ijodkorligi faoliyatida, jumladan, oila a'zolarining huquqiy maqomini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, sudlar tomonidan oilaviy nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida oila huquqi va fuqarolik huquqi fanlarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasi oila huquqida oila a'zolarining huquqiy maqomini takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi:

o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxslarning yoki vasiylikdagi shaxslarning yashash joyi ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onasi (yolg'iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki vasiylarining yashash joyi, o'n to'rt yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarning yoki homiylikdagi shaxslarning yashash joyi esa ularning qonuniy vakillari, ya'ni ota-onasi (yolg'iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yashash joyi deb hisoblanishi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 10-iyuldagi O'RQ-1074-son "O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni yashash va turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasi uchinchi va to'rtinchi qismlarini ishlab chiqishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni, nodavlat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi voyaga yetmagan bolalarning yashash joyini ularning qonuniy vakillari yashash joyi bilan bog'lash orqali ularning

huquqiy kafolatlarini qonunchilik darajasida mustahkamlashga hamda voyaga yetmaganlar ishtirokidagi huquqiy munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlashga xizmat qildi.

zo'ravonlikdan jabrlangan yoki unga nisbatan zo'ravonlik sodir etilishi xavfi mavjud bo'lgan bolani uning ota-onasidan (ulardan biridan) yoki uning qaramog'ida bo'lgan boshqa shaxslardan bolaning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid mavjud bo'lgan hollarda ajratib olish bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishning individual choralaridan biri hisoblanishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 23-moddasini ishlab chiqishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni, nodavlat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi voyaga yetmagan oila a'zolarining huquqlarini himoya qilishning kompleks individual choralar tizimini yaratishga, shuningdek bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlariga davlat tomonidan tezkor munosabat bildirishni ta'minlashga xizmat qildi.

ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida ularning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, bolaga mehr va g'amxo'rlik ko'rsatish, uning to'laqonli va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bolaning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va ijtimoiy mansublik ehtiyojini qondirishiga ko'maklashishi, shuningdek bolalarni tarbiyalash usullari ularni befarqlik, shafqatsiz, qo'pol, inson qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo'lish, haqorat qilish yoki ekspluatatsiya qilishni istisno etishi lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 43-moddasini ishlab chiqishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni, nodavlat tashkilotlarni va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi ota-onalarning voyaga yetmagan oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishga oid majburiyatlarini qonunchilikda mustahkamlashga hamda jamiyatda bolalarga nisbatan zo'ravonlik va shafqatsiz munosabatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qildi.

bolani olib qo'yish va uni boshqa shaxsga (shaxslarga) topshirish bilan bog'liq ijro harakatlari maktabgacha ta'lim hamda umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilishi mumkin emasligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasi "Bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik uchun javobgarlikni kuchaytirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini (ID-5969) ishlab chiqishda, xususan Oila kodeksining 89-moddasini to'rtinchi qism bilan to'ldirishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-

yil 29-apreldagi 27/2-171-26-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi bolani olib qo'yish to'g'risidagi sud qarorlarini ijro etishda voyaga yetmaganlarning huquqlarini qo'shimcha himoya qilish kafolatini yaratdi, mazkur harakatlarni ta'lim muassasalarida amalga oshirishni istisno etish orqali bolaning psixologik xavfsizligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish, jumladan 3 ta ilmiy maqola (shundan 1 tasi xorijiy ilmiy nashrda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslantirilib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti yoritib berilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniq ko'rsatilib, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va ahamiyati tahlil qilingan. Yuqoridagilar bilan bir qatorda, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Oila a'zolarining huquqiy maqomining nazariy-huquqiy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida oila va oila a'zosining oila huquqi subyektlari sifatidagi tushunchasi hamda huquqiy tabiati, oila a'zolarining tasnifi va ularning huquqiy maqomini differensiallashtirish masalalari, shuningdek oila a'zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish prinsiplari tahlil qilingan.

Dissertant MDH mamlakatlari va Yevropa davlatlari qonunchiligi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyoti hamda BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi huquqiy pozitsiyalari tahlili asosida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida "oila" tushunchasining legal ta'rifi mavjud emasligini qayd etadi hamda ushbu tushunchani shakllantirishga oid uchta asosiy doktrinal yondashuvni, ya'ni formal-yuridik, sotsiologik va funksional yondashuvlarni aniqlaydi. Shu asosda kompleks (kombinatsiyalashgan) yondashuvni qo'llash zarurligi asoslanib, muallif tomonidan oilaga nikoh, qarindoshlik, quda-andachilik, farzandlikka olish yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa munosabatlar bilan o'zaro bog'langan, o'zaro shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradigan, o'zaro yordam, mas'uliyat va tenglik prinsiplari asosida faoliyat yurituvchi shaxslar birlashmasi sifatida mualliflik ta'riffi taklif etilgan.

Muallif tomonidan oilaning kvazi-subyektivligi konsepsiyasi asoslab berilgan bo'lib, unga ko'ra oila an'anaviy ma'noda huquq subyektivligi hisoblanmasa-da, ijtimoiy ta'minot, uy-joy munosabatlari va soliqqa tortish sohalarida qonunchilik amalda unga huquq subyektivligining ayrim elementlarini e'tirof etadi. Buni, xususan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida oilalarni uch toifaga ajratgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-258-son Farmoni ham tasdiqlaydi.

"Oila a'zosi" tushunchasiga nisbatan formal-yuridik, faktik, funksional va maqsadli yondashuvlardan iborat to'rtta asosiy doktrinal yondashuv aniqlangan. Sud amaliyoti, jumladan Samarqand viloyati Urgut tuman sudi hamda Qarshi tumanlararo sudi tomonidan ko'rilgan ishlar tahlili asosida sudlar diniy nikoh (nikoh o'qitish) asosida vujudga kelgan, biroq davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan faktik nikoh munosabatlarida tug'ilgan bolalarga nisbatan otalikni belgilashga majbur bo'layotganligi bilan ifodalanadigan barqaror qonuniyat aniqlangan. Bu esa davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan uzoq muddatli faktik nikoh munosabatlarida tug'ilgan bolalar huquqlarini avtomatik tarzda himoya qilish mexanizmining mavjud emasligining bevosita oqibati ekanligi asoslab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oila a'zolarining tasnifi uchta mezon, ya'ni qarindoshlik darajasi, subyektivning yoshi hamda oilaviy-huquqiy aloqalarning xususiyatiga kompleks asoslanganligi aniqlangan. Oila a'zolari toifalarining iyerarxik tizimi er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, shuningdek boshqa qarindoshlar hamda qonunga muvofiq oila a'zolariga tenglashtirilgan shaxslarni qamrab oladi.

Sud amaliyoti tahlili qonunchilikdagi tizimli muammoni aniqlash imkonini berdi. Xususan, unda undiriladigan aliment miqdorining mehnatga layoqatsiz shaxsning yashash minimumi bilan o'zaro nisbatini belgilovchi aniq mezonlarning mavjud emasligi tayinlanayotgan aliment summalarining real moddiy ta'minotni ta'minlamasligiga olib kelishi asoslab berilgan. O'rnini bosuvchi ota-onalarning huquqiy maqomini aniq chegaralashning amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi. Jumladan, 2025-yil 1-iyul holatiga ko'ra, respublikada 79 mingdan ortiq yetim bola hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar mavjud.

Oila huquqi prinsiplari tizimi iyerarxik tarzda tashkil etilgan yaxlit tizim sifatida baholanib, u konstitutsiyaviy prinsiplar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-80-moddalari), tarmoq prinsiplari (O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasi) hamda alohida huquq institutlariga xos maxsus prinsiplarni o'z ichiga olishi asoslab berilgan. Dissertant barqaror huquqiy plyuralizm mavjud degan xulosaga keladi. Unga ko'ra, rasmiy davlat huquqi islom huquqi normalari, mahalla odatlari va an'anaviy urf-odatlar bilan bir qatorda amal qilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini oilaning legal ta'rifi, oilaga huquq subyektivligining ayrim elementlari e'tirof etiladigan holatlarni hamda faktik tarbiyachilarning aliment olish huquqini mustahkamlovchi normalar bilan to'ldirish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **"O'zbekiston Respublikasining amaldagi oilaviy qonunchiligida oila a'zolarining huquqiy maqomining mazmuni"** deb

nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasi oilaviy qonunchiligida oila a'zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solishning rivojlanish bosqichlari, oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarining ilmiy-amaliy tavsifi, shuningdek ularning mulkiy huquq va majburiyatlariga oid huquqiy muammolar tahlil qilingan.

Dissertant zamonaviy O'zbekiston hududida oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish evolyutsiyasini bir necha tarixiy bosqichlarga ajratadi. Sobiq sovet hokimiyati o'rnatilguniga qadar bo'lgan davr shariat va odat huquqi normalarining ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Sovet hokimiyati qaror topgach esa an'anaviy tizimdan voz kechish jarayoni boshlangan. Xususan, 1917–1918-yillardagi dastlabki sovet dekretlari nikohning fuqarolik shaklini hamda erkak va ayolning teng huquqliligini e'lon qilgan. 1969-yildagi O'zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi oilaviy munosabatlarning butun tizimini kompleks tartibga solgan. Mustaqillik davri (1991-yildan boshlab) universal huquqiy qadriyatlar bilan milliy an'analar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga intilish bilan tavsiflanadi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining qabul qilinishi milliy oilaviy qonunchilik asoslarining shakllanishini yakunlagan. Eng yangi bosqich (2016-yildan keyingi davr) esa islohotlarning chuqurlashuvi, faol raqamlashtirish jarayonlari hamda huquqiy tartibga solishni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bilan ajralib turadi.

Oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy huquqlarini tadqiq etish jarayonida dissertant ularning huquqiy tabiatiga oid kompleks konsepsiyani ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra ushbu huquqlar konstitutsiyaviy-huquqiy asosga (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20-moddasi), fuqarolik-huquqiy mazmunga hamda oilaviy-huquqiy amalga oshirish shakliga ega. Tadqiqot davomida xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan inson huquqlarining individualistik konsepsiyalari bilan o'zbek jamiyatida shakllangan oilaga oid an'anaviy kollektivistik qarashlar o'rtasida obyektiv ziddiyat mavjudligi aniqlangan. 2023-yil iyul–avgust oylarida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi 250 nafar ayol ishtirokida o'tkazilgan analitik tadqiqot ma'lumotlari tahlili asosida respondentlarning atigi 20,6 foizi kiberzo'ravonlik tushunchasi haqida yetarli darajada xabardor ekani, har oltinchi respondent esa haftasiga uch-to'rt marotaba uning namoyon bo'lish holatlariga duch kelgani aniqlangan. Mazkur holat oilaviy munosabatlarning raqamli o'lchovini inobatga olgan holda shaxsiy nomulkiy huquqlarni himoya qilish tizimini kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlariga ko'ra, oilaviy nizolar sonining 2021-yildagi 99 695 tadan 2024-yilda 119 649 taga ko'paygani ham oila a'zolarining shaxsiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yana-da takomillashtirish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Oila a'zolarining mulkiy huquq va majburiyatlarini tadqiq etish jarayonida dissertant ushbu huquqiy toifaga mualliflik ta'rifini ishlab chiqqan hamda uning o'ziga xos belgilarini, ya'ni qat'iy shaxsiy xususiyatga egaligi, davomli huquqiy munosabatni ifodalashi, asosan bepul xarakterga ega bo'lishi, tartibga solishda imperativ usulning dispozitiv elementlar bilan uyg'unlashgani hamda oilaviy-

huquqiy aloqalardan kelib chiqadigan hosila xususiyatini aniqlagan. Aliment majburiyatlarining oila huquqining alohida instituti sifatidagi mustaqil huquqiy tabiati asoslab berilgan. Sud amaliyoti tahlili aliment majburiyatlarini majburiy ijro etishda, ayniqsa majbur shaxs xorijda bo'lgan hollarda tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatgan. Shuningdek, har bir bola uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 26,5 foizi miqdorida belgilangan amaldagi eng kam aliment voyaga yetmagan bolaning real yashash minimumini ta'minlamasligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini oilaviy munosabatlarni tartibga solishda odat va an'analarni qo'llash mumkin bo'lgan mezonlar, er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarni mediatorni majburiy jalb qilgan holda hal etish tartibi, bolalarga nisbatan jismoniy jazoni qo'llashni taqiqlash, ota-onadan alohida yashayotgan ota yoki onaga bolani muloqot qilish tartibi muntazam ravishda buzilgan hollarda topshirish asoslari, tegishli yoshdagi bola uchun alimentning eng kam miqdorini uning yashash minimumining kamida 50 foizi darajasida belgilash, shuningdek subsidiar aliment majburiyatlarini qo'llash maqsadida birinchi navbatdagi majbur shaxslardan ta'minot olishning imkonsizligi mezonlarini nazarda tutuvchi normalar bilan to'ldirish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **“Oila a’zolarining ayrim toifalari huquqiy maqomining muammolari va ularni hal etish yo’llari”** deb nomlangan uchinchi bobida voyaga yetmagan bolalar huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish muammolari, turli huquqiy rejimlarda er-xotinlarning huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek boshqa oila a'zolarining huquqiy holati hamda ularni ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Voyaga yetmagan bolalarning huquqiy maqomini tadqiq etish jarayonida dissertant “rivojlanib borayotgan qobiliyatlar” prinsipi (Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 5-moddasi)ga asoslangan bosqichma-bosqich huquq subyektligi konsepsiyasini asoslab bergan. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, bola voyaga yetib borishi bilan uning huquq va vakolatlari bosqichma-bosqich kengayib boradi. Bola bilan uning qonuniy vakillari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan hollarda, voyaga yetmagan shaxs mustaqil va xolis vakillik bilan yetarli darajada ta'minlanmayotganligi aniqlangan. Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida xorijiy davlatlar amaliyotidagi *child's lawyer* va *guardian ad litem* institutlari tajribasi asosida bola manfaatlarining mustaqil vakili institutini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, dissertatsiyada ota-onalik huquqidan mahrum qilish institutini qo'llash mezonlari hamda ota-onalik majburiyatlari lozim darajada bajarilmasligining sabablarini bartaraf etish imkoniyati mavjud bo'lgan hollarda bolani biologik oilasida saqlab qolish ustuvorligi prinsipi ilmiy jihatdan asoslangan.

Er-xotinlarning huquqiy maqomini tadqiq etish doirasida dissertant faktik nikoh munosabatlarini yuridik jihatdan kvalifikatsiya qilish muammolarini tahlil qilgan. Kanada, Avstraliya va AQSH huquq tizimlari hamda milliy huquqni qo'llash amaliyotining qiyosiy-huquqiy tahlili asosida faktik nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishning plyuralistik modeli ishlab chiqilgan. Mazkur model faktik

nikohning davomiyligi va umumiy farzandlarning mavjudligiga qarab huquqiy oqibatlarni differensiallashtirishni nazarda tutadi. Xususan, birinchi (bazaviy) daraja – kamida ikki yil davom etgan faktik nikoh munosabatlarida mol-mulkni orttirishga qo‘shilgan hissani kompensatsiya qilish huquqi; ikkinchi (kengaytirilgan) daraja – umumiy farzandlar mavjud bo‘lib, faktik nikoh kamida besh yil davom etgan hollarda cheklangan aliment majburiyatlari; uchinchi (imtiyozli) daraja esa meros huquqlari va mol-mulkning umumiyligi prezumpsiyasi faqat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan nikohdagi er-xotinlarga tatbiq etilishini nazarda tutadi.

Er-xotinlar mol-mulkining qonuniy huquqiy rejimiga nisbatan muallif tomonidan modifikatsiyalashgan umumiy mulk konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, er-xotin mol-mulki uch darajaga ajratiladi: shaxsiy mol-mulk (nikohgacha tegishli bo‘lgan, hadya yoki meros tariqasida olingan mol-mulk), umumiy mol-mulk (umumiy daromadlar hisobidan orttirilgan mol-mulk) hamda shartli umumiy mol-mulk (er-xotindan birining shaxsiy mablag‘lari sezilarli darajada sarflangan holda orttirilgan va mol-mulkni bo‘lish chog‘ida kompensatsiya olish huquqini nazarda tutadigan mol-mulk). Shuningdek, aralash mol-mulkni taqsimlashda mutanosib taqsimlash prezumpsiyasi qoidasini qo‘llash taklif etilgan. Tadqiqot natijasida er-xotinlarning teng huquqliligi prinsipi qonunchilikda formal tarzda mustahkamlangan bo‘lsa-da, an‘anaviy gender rollari hamda moliyaviy axborotdan foydalanish imkoniyatlarining teng emasligi sababli amalda mavjud bo‘lgan tengsizlikni bartaraf etish uchun bu yetarli emasligi asoslab berilgan.

Dissertatsiya doirasida boshqa oila a‘zolarining differensiallashtirilgan huquqiy maqomi konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u uch komponentli tizimga asoslanadi. Mazkur tizimga ko‘ra, birlamchi doiraga buva va buvilar, aka-uka hamda opa-singillar kiradi va ularga nisbatan oilaviy aloqalar mavjudligi prezumpsiyasi amal qiladi. Ikkinchi doiraga uchinchi darajagacha bo‘lgan boshqa qarindoshlar, o‘gay ota va o‘gay ona kiradi hamda ularga nisbatan barqaror faktik oilaviy munosabatlar mavjudligi isbotlanishi talab etiladi. Uchinchi doirani qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lmagan faktik tarbiyachilar tashkil etadi, bunda uzoq muddatli tarbiyaviy munosabatlar hamda bola bilan barqaror emotsional bog‘liqlik mavjudligi isbotlanishi lozim.

Shuningdek, ota-onalik g‘amxo‘rligini amalda amalga oshirgan shaxslarning ota-onalik maqomini e‘tirof etishning huquqiy mexanizmi sifatida funksional ota-onalik doktrinasi asoslab berilgan. Mazkur maqomni e‘tirofetish mezonlari sifatida bolaning kamida ikki yil davomida uzluksiz tarbiyalangan bo‘lishi, uning jismoniy va psixologik ehtiyojlari ta‘minlanganligi hamda bola bilan barqaror emotsional bog‘liqlik shakllanganligi belgilangan.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi oila huquqida oila a‘zolarining huquqiy maqomini takomillashtirishga doir olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida oilaning legal ta‘rifi mavjud

emasligi mazkur tushunchani unifikatsiya qilishning obyektiv murakkabligi bilan izohlanadi, chunki “oila” tushunchasining mazmuni huquq tarmog‘i va huquqiy tartibga solish maqsadlariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Oila huquqi fanida oilaga ta’rif berishning uchta asosiy doktrinal yondashuvi aniqlangan: formal-yuridik yondashuv (nikoh va qarindoshlik munosabatlariga ustuvor ahamiyat beradi), sotsiologik yondashuv (birgalikdagi faktik turmushga asoslanadi) hamda funksional yondashuv (oilani u bajaradigan ijtimoiy funksiyalar orqali belgilaydi). Shunga ko‘ra, yuridik mezonlar bilan oilaviy munosabatlarning faktik belgilarini o‘zida uyg‘unlashtirgan kombinatsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarurligi asoslab berilgan. Oilaning huquq subyektligiga nisbatan kvazi-subyektlik konsepsiyasi ilgari surilgan bo‘lib, unga ko‘ra oila to‘liq ma’noda huquq subyekti hisoblanmaydi. Biroq ayrim huquqiy munosabatlarda, xususan, ijtimoiy ta’minot, uy-joy munosabatlari va soliqqa tortish sohalarida qonunchilik unga huquq subyektligining ayrim elementlarini e’tirof etadi. Shu sababli oilaning huquq subyektligi cheklangan va funksional xususiyatga ega bo‘lib, u faqat muayyan huquqiy tartibga solish maqsadlariga erishish uchun zarur bo‘lgan doirada amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv milliy qonunchilikda o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, hozirgi kunga qadar u alohida normativ-huquqiy qoida sifatida bevosita mustahkamlanmagan.

2. Oila huquqida “oila a’zosi” tushunchasi huquqiy tartibga solishning maqsadiga qarab differensial yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijasida oila a’zosini aniqlashning to‘rtta asosiy yondashuvi, ya’ni formal-yuridik yondashuv (nikoh, qarindoshlik va farzandlikka olishga asoslangan), faktik yondashuv (birgalikda yashash va umumiy xo‘jalik yuritishni inobatga oladigan), funksional yondashuv (oilaviy funksiyalarni bajarish orqali belgilanadigan) hamda maqsadli yondashuv (huquqning turli tarmoqlari uchun xos bo‘lgan) aniqlangan. Huquqiy bog‘liqlikning formal mezonlarini oilaviy munosabatlarning faktik holatlari bilan uyg‘unlashtiruvchi kombinatsiyalashgan yondashuvni qo‘llash zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, shaxsni oila a’zosi sifatida e’tirof etishning obyektiv mezonlari (yuridik bog‘liqlik, birgalikda yashash, o‘zaro huquq va majburiyatlarning mavjudligi) hamda subyektiv mezonlari (niyat, o‘zaro e’tirof etish va shaxsiy munosabatlar) tizimlashtirilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasi oila huquqida oila a’zolarining tasnifi uchta asosiy mezonning kompleks qo‘llanilishiga asoslanadi. Bular: qarindoshlik darajasi (qon-qarindoshlik va quda-andachilik aloqalarini belgilaydi), subyektning yoshi (uning muomala layoqati hajmini belgilaydi) hamda oilaviy-huquqiy aloqalarning xususiyati (nikoh, farzandlikka olish va faktik tarbiyalash munosabatlarini qamrab oladi). Oila a’zolarining huquqiy maqomi ikki komponentli tuzilishga ega bo‘lib, u umumiy elementlarni (oilaviy huquq layoqati va muomala layoqati, huquqlarni amalga oshirish prinsiplari) hamda maxsus elementlarni (ota-onalik huquqlari, aliment majburiyatlari va boshqa oilaviy-huquqiy vakolatlar) o‘z ichiga oladi.

4. Tadqiqot natijasida oila a’zolarining huquqiy maqomini huquqiy tartibga solish diniy-an’anaviy tizim (shariat va odat huquqi)dan zamonaviy dunyoviy

huquqiy modelga bosqichma-bosqich transformatsiyalanganligi aniqlangan. Sovet davrida erkak va ayolning teng huquqliligi, bola huquqlarining ustuvorligi hamda oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash prinsiplari shakllantirilgan. Mustaqillik davri (1991-yildan boshlab) esa xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan umume'tirof etilgan huquqiy qadriyatlar bilan milliy madaniy an'analar o'rtasida muvozanatni ta'minlashga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Tadqiqot davomida inson huquqlarining individualistik konsepsiyalari bilan o'zbek jamiyatida shakllangan oilaga oid an'anaviy kollektivistik qarashlar o'rtasida obyektiv ziddiyat mavjudligi aniqlangan. Shu munosabat bilan oiladagi shaxsiy huquqlarni amalga oshirish boshqa oila a'zolarining huquq va qonuniy manfaatlari bilan uyg'un holda ta'minlanishi zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

5. Tadqiqotda oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy huquqlarining huquqiy tabiatiga oid kompleks (integratsiyalashgan) konsepsiya ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra ushbu huquqlarni na faqat fuqarolik-huquqiy model, na faqat oilaviy-huquqiy model doirasida to'liq izohlash mumkin. Muallif tomonidan quyidagi ta'rif taklif etilgan: oila a'zolarining shaxsiy nomulkiy huquqlari – bu o'z egasining shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan, oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan, iqtisodiy mazmunga ega bo'lmagan hamda boshqa oila a'zolarining huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda shaxsning jismoniy va ma'naviy yaxlitligini oilaviy munosabatlar tizimida ta'minlashga qaratilgan subyektiv huquqlardir. Shuningdek, oila a'zolarining mulkiy huquq va majburiyatlari shaxsiy xususiyatga ega ekanligi, davomli huquqiy munosabatni ifodalashi, asosan bepul xususiyat kasb etishi hamda oilaviy-huquqiy aloqalardan kelib chiqadigan hosila huquq va majburiyatlar sifatida namoyon bo'lishi asoslab berilgan.

6. Voyaga yetmagan shaxsning huquqiy maqomi "rivojlanib borayotgan qobiliyatlar" prinsipi (Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 5-moddasi)ga asoslangan dinamik huquqiy konstruktsiya hisoblanadi. Mazkur prinsipga ko'ra, bolaning ongli ravishda o'z xohish-irodasini ifoda etish qobiliyati shakllanib borгани sari uning huquq va vakolatlari bosqichma-bosqich kengayib boradi. Ana shu yondashuv voyaga yetmaganlarning bosqichma-bosqich huquq subyektivligi konsepsiyasining mazmunini tashkil etadi. Bolalar huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash uch pog'onali vakillik tizimini institutsionallashtirishni talab etadi. Bunda birlamchi bosqich – ota-onalar yoki boshqa qonuniy vakillar, ikkinchi bosqich – vasiylik va homiylik organlari, uchinchi bosqich esa bola bilan uning qonuniy vakillari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan hollarda bolaning manfaatlarini himoya qiluvchi mustaqil vakildan iborat bo'lishi lozim.

7. Faktik nikoh munosabatlarini huquqiy tartibga solishning plyuralistik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u birgalikda yashashni mutlaqo tan olmaslik hamda uni to'liq nikohga tenglashtirish o'rtasidagi oraliq huquqiy modelni ifodalaydi. Mazkur model huquqiy oqibatlarni faktik nikoh munosabatlarining davomiyligi hamda umumiy farzandlarning mavjudligiga qarab differensiallashtirishga asoslanadi. Xususan, birinchi (bazaviy) darajadagi himoya – kamida ikki yil davom etgan faktik nikoh munosabatlarida mol-mulk orttirishga qo'shilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan

hissani kompensatsiya qilish huquqini nazarda tutadi. Ikkinchi (kengaytirilgan) darajadagi himoya – umumiy farzandlar mavjud bo‘lib, faktik nikoh munosabatlari kamida besh yil davom etgan hollarda cheklangan aliment majburiyatlarini belgilaydi. Uchinchi (imtiyozli) darajadagi himoya esa meros huquqlari va mol-mulkning umumiyligi prezumpsiyasi faqat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan nikohdagi er-xotinlarga tatbiq etilishini nazarda tutadi. Mazkur model, bir tomondan, nikohni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga bo‘lgan rag‘batni saqlab qolishga, ikkinchi tomondan esa uzoq muddatli faktik nikoh munosabatlarida yuzaga keladigan adolatsizliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

8. Er-xotinlarning alohidalik elementlarini o‘zida mujassam etgan modifikatsiyalashgan umumiy mulk konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, er-xotin mol-mulki uch toifaga ajratiladi: har bir er-xotinning shaxsiy mol-mulki (nikohgacha tegishli bo‘lgan mol-mulk, hadya yoki meros tariqasida olingan mol-mulk, shaxsiy foydalanishdagi buyumlar), umumiy mol-mulk (nikoh davrida umumiy daromadlar hisobidan orttirilgan mol-mulk) hamda shartli umumiy mol-mulk (er-xotindan birining shaxsiy mablag‘laridan sezilarli darajada foydalanilgan holda orttirilgan va mol-mulkni bo‘lish chog‘ida kompensatsiya olish huquqini nazarda tutuvchi mol-mulk).

9. Qarindoshlik munosabatlari qonuniy tartibda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa-da, amalda ota-onalik g‘amxo‘rligini amalga oshirgan shaxslarning ota-onalik maqomini e‘tirof etishning huquqiy mexanizmi sifatida funksional ota-onalik doktrinasini asoslab berilgan. Mazkur doktrina ota-onalik funksiyalarining uzoq muddat davomida amalda bajarilganligiga, ya‘ni bolani tarbiyalash, moddiy ta‘minlash va u bilan barqaror emotsional bog‘liqlikni shakllantirishga asoslanadi. Funksional ota-onalikni e‘tirof etishning quyidagi mezonlari ishlab chiqilgan: munosabatlarning davomiyligi (kamida ikki yil davomida uzluksiz faktik tarbiyalash), kundalik hayotda ota-onalik vazifalarini doimiy ravishda bajarish, bola bilan barqaror emotsional bog‘liqlikning shakllanishi, bolani ta‘minlashga sezilarli moliyaviy hissa qo‘shilganligi hamda shaxsning ota-onalik maqomi jamiyat tomonidan ochiq e‘tirof etilganligi.

10. Aka-uka va opa-singillarning huquqlari ota-ona va bola o‘rtasidagi huquqiy munosabatlardan hosila bo‘lmagan, balki oilaviy huquqlarning mustaqil toifasi sifatidagi konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Aka-uka va opa-singillik aloqalarini saqlab qolishning maqsadga muvofiqligi prezumpsiyasi shakllantirilgan bo‘lib, unga ko‘ra ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda yoki ota-onaning nikohi bekor qilingandan keyin bolaning yashash joyini belgilashda aka-uka va opa-singillarni bir-biridan ajratish favqulodda chora sifatida qo‘llanilishi lozim. Bunda bolalarni alohida joylashtirish faqat ularni birgalikda saqlash bolalarning manfaatlariga zid ekanligi isbotlangan taqdirdagina yo‘l qo‘yilishi asoslab berilgan.

11. Boshqa oila a‘zolarining differensiallashtirilgan huquqiy maqomi konsepsiyasi asoslab berilgan bo‘lib, u qarindoshlik yoki quda-andachilikning formal mezonlarini barqaror faktik oilaviy munosabatlar mavjudligini ifodalovchi funksional mezon bilan uyg‘unlashtirishga asoslanadi. “Boshqa oila a‘zolari”

toifasini faqat qarindoshlik darajasi orqali belgilash mumkin emasligi, chunki qarindoshlikning o'zi oilaviy-huquqiy himoyani talab qiladigan oilaviy aloqalar mavjudligini anglatmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur toifani aniqlashning uch komponentli tizimi taklif etilgan. Unga ko'ra, birlamchi doiraga buva va buvilar, aka-uka hamda opa-singillar kiradi va ular o'rtasida eng kam darajadagi oilaviy aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda oilaviy munosabatlar mavjudligi prezumpsiyasi amal qiladi. Ikkinchi doiraga uchinchi darajagacha bo'lgan boshqa qarindoshlar, o'gay ota va o'gay ona kiradi hamda ularga nisbatan barqaror faktik oilaviy munosabatlar mavjudligi isbotlanishi talab etiladi. Uchinchi doirani qarindoshlik aloqalariga ega bo'lmagan faktik tarbiyachilar tashkil etadi, bunda uzoq muddatli tarbiyaviy munosabatlar hamda bola bilan barqaror emotsional bog'liqlik mavjudligi isbotlanishi lozim.

II. O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 1¹-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish taklif etiladi:

“1¹-modda. Oila tushunchasi

Mazkur Kodeks maqsadlarida nikoh, qarindoshlik, quda-andachilik, farzandlikka olish yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa munosabatlar bilan bog'langan hamda o'zaro yordam, mas'uliyat va tenglik prinsiplari asosida o'zaro shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradigan shaxslar birlashmasi oila deb e'tirof etiladi.

Ayrim huquqiy institutlarni tartibga solish maqsadida qonun yoki nikoh shartnomasida oilaning hamda oila a'zolari doirasining maxsus ta'rifi belgilanishi mumkin.”

2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 1²-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish maqsadga muvofiq:

“1²-modda. Oilaga huquq subyektligining ayrim elementlari e'tirof etiladigan holatlar

Oila quyidagi maqsadlarda yagona huquq subyekti sifatida ishtirok etishi mumkin:

ijtimoiy nafaqalar va imtiyozlarni oilaning jami daromadidan kelib chiqib olish;

ijtimoiy ijara shartnomasi asosida turar joy bilan ta'minlanish;

oila a'zolarining daromadlari va mol-mulkini soliqqa tortish;

statistik hisob va demografik tadqiqotlarni amalga oshirish;

qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollarda.”

3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 1³-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish lozim:

“1³-modda. Oila a'zolari

Er-xotinlar, ota-onalar va bolalar, farzandlikka oluvchilar hamda farzandlikka olinganlar oila a'zolari deb e'tirof etiladi.

Mazkur Kodeks maqsadlarida quyidagilar boshqa oila a'zolari deb e'tirof etiladi:

ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlardan tashqari to'g'ri tutashgan yuqori va quyi shajara bo'yicha qarindoshlar (bobolar, buvilar, nabiralar, katta bobolar, katta buvilar, chevaralar);

yon shajara bo'yicha uchinchi darajagacha bo'lgan qarindoshlar (aka-uka, opa-singillar, amaki, tog'a, amma, xola, jiyanlar);

quda-andachilik munosabatlari bilan bog'liq shaxslar

faktik tarbiyachilar va faktik tarbiyalanuvchilar(o'gay ota, o'gay ona, o'gay o'g'il, o'gay qiz);

Oila a'zolari doirasini aniqlashda sud yuridik ahamiyatga ega bo'lgan aloqalarning mavjudligini, birgalikda yashash va umumiy xo'jalik yuritish holatini, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni, shaxsning boshqa oila a'zolari tomonidan oila a'zosi sifatida e'tirof etilganligini, shuningdek boshqa ahamiyatga ega holatlarni hisobga oladi."

4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 8-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi:

"Oilaviy munosabatlarni tartibga solishda urf-odatlar va milliy an'analar quyidagi shartlar mavjud bo'lgan taqdirda qo'llaniladi:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalariga zid bo'lmasa;

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan tenglik, kamsitmaslik hamda inson qadr-qimmatini hurmat qilish prinsiplariga zid bo'lmasa; oila a'zolarining erkin va ongli roziligi asosida qo'llanilsa;

bolalar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishda bolaning eng ustuvor manfaatlariga mos kelsa."

5. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 22¹-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish taklif etiladi:

"22¹-modda. Oila hayotiga oid masalalar bo'yicha er-xotin o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish

Er-xotin o'rtasida oila hayotining muhim masalalari yuzasidan kelishmovchiliklar vujudga kelgan taqdirda, ularning har biri nizoni hal etish uchun sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Sud mazkur nizoni oilaviy psixologiya bo'yicha mutaxassis yoki mediatori majburiy jalb etgan holda ko'rib chiqadi."

6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 28¹-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish maqsadga muvofiq:

"28¹-modda. Faktik nikoh munosabatlarining huquqiy rejimi

Kamida ikki yil davom etgan faktik nikoh munosabatlarida bo'lgan shaxslar ushbu munosabatlar tugatilganda boshqa faktik birga yashovchi shaxs nomiga rasmiylashtirilgan mol-mulkni sotib olishga qo'shgan hujjatlar bilan tasdiqlangan hissasi uchun kompensatsiya talab qilish huquqiga ega.

Kamida besh yil davom etgan faktik nikoh munosabatlarida bo'lgan hamda umumiy voyaga yetmagan farzandlariga ega bo'lgan shaxslar munosabatlar tugatilganda, agar ular umumiy farzandni parvarish qilayotgan bo'lsa va o'zini mustaqil ravishda moddiy ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lmasa, umumiy farzand uch yoshga to'lguniga qadar ta'minot (aliment) berilishini talab qilish huquqiga ega.

Kompensatsiya va ta'minot miqdori taraflarning moddiy hamda oilaviy ahvolini inobatga olgan holda sud tomonidan belgilanadi.

Mazkur modda qoidalari meros huquqiy munosabatlariga nisbatan tatbiq etilmaydi hamda er-xotin mol-mulkinging umumiyliigi huquqiy rejimini vujudga keltirmaydi.

Faktik nikoh munosabatlarining davomiyligini aniqlashda birgalikda yashash muddati, umumiy xo'jalik yuritilganligi hamda faktik nikoh munosabatlari mavjud bo'lganligi e'tiborga olinadi va ular qonunchilikda nazarda tutilgan har qanday maqbul dalillar bilan tasdiqlanishi mumkin."

7. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 31-moddasini oltinchi qism bilan to'ldirish hamda uni quyidagi tahrirda bayon etish lozim:

"Nikoh shartnomasida mazkur Kodeks talablariga zid bo'lmagan doirada er-xotinning shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirish tartibiga oid shartlar ham nazarda tutilishi mumkin. Jumladan, nikoh shartnomasida oilaning yashash joyini belgilash bo'yicha er-xotinning birgalikda qaror qabul qilish tartibi, bolalarning ta'limiga oid masalalar yuzasidan birgalikda qaror qabul qilish tartibi, shuningdek oilaviy hayotni tashkil etishga doir boshqa masalalar nazarda tutilishi mumkin. Bunday shartlar er-xotinning teng huquqliligi prinsipiga zid bo'lmasligi hamda insonning qadr-qimmatini kamsitmasligi lozim."

8. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksini 67¹-modda bilan quyidagi tahrirda to'ldirish taklif etiladi:

"67¹-modda. Bola manfaatlarining mustaqil vakili

Bola bilan uning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan hollarda yoxud bolaning manfaatlari ota-onasi, vasiylik va homiylik organi yoki prokuror tomonidan lozim darajada himoya qilinishi mumkin bo'lmagan taqdirda, sud bola manfaatlarining mustaqil vakilini tayinlaydi.

Mustaqil vakil O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tomonidan yuritiladigan bolalar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashtirilgan advokatlar reyestriga kiritilgan advokatlar orasidan tayinlanadi.

Mustaqil vakil ota-onalar, vasiylik va homiylik organlari yoki ishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarning pozitsiyasidan qat'i nazar, faqat bolaning manfaatlarini ko'zlab faoliyat yuritadi.

Mustaqil vakil xizmatlari uchun haq to'lash xarajatlari, agar sud ularni nizo taraflari zimmasiga yuklamasa, davlat hisobidan qoplanadi.

Mustaqil vakilni tayinlash tartibi, uning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi bilan belgilanadi.

9. Amaldagi qonunchilikda bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatning umumiy taqiqi nazarda tutilgan bo'lsa-da, bolalarni jismoniy jazolashni bevosita taqiqlovchi norma mavjud emas. Mazkur holat huquqiy bo'shliqni yuzaga keltirib, tan jazolarini bolalarni tarbiyalash an'analari bilan oqlash imkonini bermoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 75-moddasi uchinchi qismini quyidagi jumla bilan to'ldirish taklif etiladi:

“Bolalarni jismoniy jazolashning har qanday shaklini qo‘llash taqiqlanadi.”

10. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 76-moddasini beshinchi qism bilan to‘ldirish hamda uni quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“Agar bola yashab turgan ota-ona bolaning ikkinchi ota-ona bilan muloqot qilish tartibini belgilash to‘g‘risidagi sud qarorini muntazam ravishda bajarmasa, sud alohida yashayotgan ota-onaning da’vosiga ko‘ra unga ogohlantirish berishga, takroran buzilish sodir etilgan taqdirda esa, agar bu bolaning manfaatlariga zid bo‘lmasa, bolani tarbiyalash uchun alohida yashayotgan ota-onaga topshirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.”

11. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 79-moddasini ikkinchi qism bilan quyidagi tahrirda to‘ldirish taklif etiladi:

“Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tomonidan faqat eng so‘nggi chora sifatida qo‘llaniladi, agar vasiylik va homiylik organlari tomonidan oilaga yordam ko‘rsatish hamda ota-onalik majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik sabablarini bartaraf etishga qaratilgan choralari sud belgilagan muddat davomida natija bermagan bo‘lsa yoki ota-ona tomonidan sodir etilgan qilmishlarning xususiyati, jumladan bolaga yoki boshqa oila a‘zosining hayoti yoxud sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir etilganligi sababli bunday choralarni qo‘llashning imkoni bo‘lmasa yoki maqsadga muvofiq bo‘lmasa.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi da’vo arizasi kiritilishidan oldin oilaga zarur yordam ko‘rsatish choralari ko‘rishi hamda ularning natijalarini sudga taqdim etiladigan xulosada aks ettirishi shart.

Sud, agar mazkur choralari ko‘rilmaganligini aniqlasa, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi da’voni qanoatlantirishni rad etishga haqli, bundan ota-onaning o‘z farzandlari yoki turmush o‘rtog‘ining hayoti yoxud sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir etgan hollari mustasno.”

12. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 89-moddasi to‘rtinchi qismini quyidagi jumla bilan to‘ldirish lozim:

“Bolani olib qo‘yish va uni boshqa shaxsga (shaxslarga) topshirish bilan bog‘liq ijro harakatlari maktabgacha ta‘lim hamda umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida amalga oshirilishi mumkin emas.”

(Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2026-yil 29-apreldagi 27/2-171-26-son dalolatnomasiga asosan qonun loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan.)

13. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 99-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo‘lib, unda alimentning eng kam miqdorini amaldagi har bir bola uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 26,5 foizi o‘rniga tegishli yoshdagi bola uchun belgilangan yashash minimumining kamida 50 foizi miqdorida belgilash nazarda tutilishi lozim. Chunki alimentning eng kam miqdorini mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga bog‘lab belgilash uning amaldagi darajasida voyaga yetmagan bolaning real yashash minimumini ta‘minlamaydi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 126-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

“126-modda. Tarbiyalanuvchilarning o‘z faktik tarbiyachilarini ta‘minlash majburiyati

Voyaga yetmagan bolalarni amalda tarbiyalagan va moddiy ta‘minlagan, mehnatga layoqatsiz hamda yordamga muhtoj shaxslar, agar ular ushbu bolalarni kamida besh yil davomida tarbiyalagan va ta‘minlagan hamda o‘z tarbiyaviy va ta‘minot majburiyatlarini lozim darajada bajargan bo‘lsa, zarur moddiy mablag‘larga ega bo‘lgan mehnatga layoqatli voyaga yetgan tarbiyalanuvchilaridan sud tartibida ta‘minot (aliment) undirishni talab qilish huquqiga ega.

Voyaga yetmagan bolalarni besh yildan kam muddat davomida amalda tarbiyalagan va moddiy ta‘minlagan, mehnatga layoqatsiz hamda yordamga muhtoj shaxslar ham, agar faktik tarbiyalash va ta‘minlash muddati kamida ikki yilni tashkil etgan bo‘lsa, faktik tarbiyachi bolani uzluksiz va lozim darajada tarbiyalagan hamda ta‘minlagan bo‘lsa, besh yil davomida tarbiyalash imkoniyati uzrli sabablarga ko‘ra (bolaning ota-onasi vafot etganligi, bolaning voyaga yetganligi, ota-onaning ota-onalik huquqlari tiklanganligi) mavjud bo‘lmagan bo‘lsa hamda faktik tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o‘rtasida dalillar bilan tasdiqlangan barqaror oilaviy munosabatlar shakllangan bo‘lsa, zarur moddiy mablag‘larga ega bo‘lgan mehnatga layoqatli voyaga yetgan tarbiyalanuvchilaridan sud tartibida ta‘minot (aliment) undirishni talab qilish huquqiga ega.”

15. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 136-moddasini beshinchi qism bilan quyidagi tahrirda to‘ldirish lozim:

“Birinchi navbatdagi aliment majburiyatiga ega shaxslardan (ota-onalar va bolalar) ta‘minot olishning imkoni bo‘lmagan hollarda, jumladan, bunday shaxslar mavjud bo‘lmasa (vafot etgan, bedarak yo‘qolgan deb topilgan bo‘lsa), mehnatga layoqatsiz yoki yordamga muhtoj bo‘lsa, ularning daromadlari o‘zlarini va yordamga muhtoj shaxsni ta‘minlash uchun yetarli bo‘lmasa, yoxud aliment to‘lashdan bo‘yin tovlagan va uni majburiy undirishning imkoni bo‘lmasa, aliment olish хукукига эга бўлган шахс судга ikkinchi navbatdagi (buva, buvi, nabiralari, aka-uka va opa-singillar) hamda uchinchi navbatdagi shaxslardan (faktik tarbiyachilar) aliment undirish to‘g‘risida da‘vo bilan murojaat qilishga haqli.”

16. Voyaga yetmagan shaxsning yashash joyini belgilash qoidalarini qonunchilikda quyidagi tahrirda mustahkamlash maqsadga muvofiq:

“O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan shaxslarning yoki vasiylikdagi shaxslarning yashash joyi ularning qonuniy vakillari, ya‘ni ota-onasi (yolg‘iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki vasiylarining yashash joyi hisoblanadi.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan shaxslarning yoki homiylikdagi shaxslarning yashash joyi ularning qonuniy vakillari, ya‘ni ota-onasi (yolg‘iz ota yoki ona), farzandlikka oluvchilari yoki homiylarining yashash joyi hisoblanadi.”

(Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 10-iyuldagi O‘RQ–1074-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni rivojlantirish va fuqarolik jamiyati masalalari qo‘mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi).)

17. Bolalarni himoya qilishning individual choralarini qonunchilikda mustahkamlash hamda ulardan biri sifatida quyidagi normani belgilash lozim:

“Bolaga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilgan yoki unga nisbatan zo‘ravonlik sodir etilishi xavfi mavjud bo‘lgan hollarda, bolaning hayoti yoki sog‘lig‘iga bevosita tahdid mavjud bo‘lsa, uni ota-onasidan (ulardan biridan) yoki uning qaramog‘ida bo‘lgan boshqa shaxslardan olib qo‘yish.”

(Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O‘RQ–996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni rivojlantirish va fuqarolik jamiyati masalalari qo‘mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi).)

18. Ota-onalar va boshqa qonuniy vakillarning bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga oid huquq va majburiyatlarini qonunchilikda quyidagi tahrirda mustahkamlash maqsadga muvofiq:

“Ota-onalar (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar) bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish maqsadida ularning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, bolaga mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, uning to‘laqonli va har tomonlama uyg‘un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, bolaning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi hamda ijtimoiy mansublik ehtiyojini qondirishiga ko‘maklashish choralarini ko‘rishi shart.

Bolalarni tarbiyalash usullari bolaga nisbatan befarqlik, shafqatsiz, qo‘pol, inson qadr-qimmatini kamsituvchi munosabatda bo‘lish, uni haqorat qilish yoki ekspluatatsiya qilishni istisno etishi lozim.”

(Mazkur taklif O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-noyabrdagi O‘RQ–996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 43-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlarni rivojlantirish va fuqarolik jamiyati masalalari qo‘mitasining 2026-yil 13-apreldagi 04/3-07-08-son dalolatnomasi).)

III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar

1. Oila a‘zolari doirasini aniqlash bilan bog‘liq nizolarni (uy-joy nizolari, meros nizolari, ijtimoiy to‘lovlarga oid nizolar) ko‘rib chiqishda sudlarga faqat nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi yoki qarindoshlik mavjudligining formal mezonlari bilan cheklanib qolmasdan, balki faktik holatlar majmuini, jumladan birgalikda yashash davomiyligini, umumiy xo‘jalik yuritilganligini, o‘zaro moddiy ta‘minotni hamda shaxsning amalda oila a‘zosi sifatida e‘tirof etilganligini ham inobatga olish tavsiya etiladi. Qonunchilikda aniq mezonlar mavjud bo‘lmagan hollarda sudlar qonun analogiyasini, bunday imkoniyat mavjud bo‘lmagan taqdirda esa O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining asosiy prinsiplaridan kelib chiqib, huquq analogiyasini qo‘llashi lozim.

2. Alohida yashayotgan ota-onaning huquqlarini samarali ta'minlash maqsadida "Bola to'g'risidagi axborotni taqdim etish tartibi"ni ishlab chiqish va tasdiqlash tavsiya etiladi. Mazkur tartibda taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotning to'liq ro'yxati (bolaning o'qishdagi o'zlashtirishi, sog'lig'i holati, ta'lim va tibbiyot muassasalariga qatnashi), ota-onalik vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar, axborot berishni rad etish asoslari, axborotni taqdim etish muddatlari hamda bunday rad etish ustidan shikoyat qilish tartibi belgilanishi lozim.

3. Bolalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan kompleks davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish tavsiya etiladi. Mazkur dastur doirasida ta'lim muassasalarida "Bola huquqlari va ularni himoya qilish usullari" nomli maxsus o'quv kursini joriy etish, turli yosh guruhlar uchun tushunarli shakldagi axborot materiallarini (broshyuralar, komikslar, videoroliklar, mobil ilovalar) yaratish, bolalar uchun ishonch telefonlari va onlayn maslahat xizmatlarini tashkil etish, shuningdek bolalarga vasiylik va homiylik organlariga hamda Bola huquqlari bo'yicha vakilga mustaqil murojaat qilish huquqi mavjudligi haqida axborot berish nazarda tutilishi lozim.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga 2030-yilgacha mo'ljallangan Oila siyosati konsepsiyasini tasdiqlash tavsiya etiladi. Mazkur konsepsiyada xavf guruhiga kiruvchi oilalarni barvaqt aniqlash hamda ularga o'z vaqtida manzilli yordam ko'rsatishning kompleks tizimini yaratish nazarda tutilishi lozim. Oilaviy siyosatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida bolaning eng ustuvor manfaatlari mezonlarini qonunchilikda mustahkamlash, bolalar bilan bog'liq nizolarni hal etishda bolalar psixologiyasi sohasidagi mutaxassislarini majburiy jalb etishga asoslangan fanlararo yondashuvni rivojlantirish, bolalarni ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda eshitish tartib-taomillarini takomillashtirish, bolaning har ikki ota-ona bilan muloqot qilish huquqini ta'minlashning samarali mexanizmlarini yaratish hamda ota-onalardan birini boladan begonalashtirish (parental alienation) holatlarining oldini olish choralarini ishlab chiqish belgilanishi maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/2025.27.12.Yu.01.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

КАМАЛХОДЖАЕВА ЗУЛАЙХО АДИЛОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО СТАТУСА ЧЛЕНОВ
СЕМЬИ В СЕМЕЙНОМ ПРАВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

12.00.03 – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy)
по юридическим наукам

Город Ташкент – 2026 год

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2025.4.PhD/Yu2145.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, английском, русском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Шарахметова Умида Шаакбаровна доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Аминжанова Матлуба Ахмедовна доктор юридических наук, профессор Сайдивалиева Хуршида Ходжиабаровна доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	Институт переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится «9» октября 2026 года в 15:00 часов на заседании Научного совета DSc.07/2025.27.12.YU.01.03 при Ташкентском государственном юридическом университете. (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано под №1527). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «17» сентября 2026 года.

(Протокол реестра № 21, «17» сентября 2026 года).

Б.К. Ходжаев

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

Э.Х. Эгамбердиев

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ш.Х. Файзиев

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире правовое регулирование статуса членов семьи переживает период фундаментальной трансформации, обусловленной глобальными социально-демографическими изменениями, эволюцией семейных структур и необходимостью адаптации правовых систем к новым формам семейных отношений. Согласно данным Департамента по экономическим и социальным вопросам ООН¹, за последние десятилетия средний размер домохозяйства в мире снизился с около 4,9 человек в 1980-х годах до 3,1-3,2 в 2024 году, что отражает глобальный переход от расширенных семейных структур к нуклеарным. По данным совместного доклада Международной организации труда и ЮНИСЕФ, опубликованного в 2024 году, 1,4 миллиарда детей в возрасте от 0 до 15 лет лишены какой-либо формы социальной защиты, оставаясь уязвимыми перед бедностью, плохим питанием и дискриминацией². Данная статистика показывает сохраняющиеся системные проблемы в правовом регулировании статуса членов семьи, недостаточной эффективности механизмов защиты прав экономически и социально уязвимых категорий (детей, женщин, пожилых лиц) и необходимости совершенствования правового статуса всех категорий членов семьи с учетом трансформации семейных отношений в обществе.

В мире в целях совершенствования правового регулирования статуса членов семьи активно развиваются такие правовые институты и доктрины, как концепция «наилучших интересов ребёнка», доктрина функционального родительства, плюралистическая модель правового регулирования фактических брачных отношений, институт независимого представителя интересов ребёнка, концепция сиблинговых прав как самостоятельной категории семейных прав. В этой связи, все большую актуальность приобретают модифицированные режимы совместной собственности супругов с элементами раздельности, концепция квазисубъектности семьи, градуированная правосубъектность несовершеннолетних, основанная на принципе «развивающихся способностей», соотношения индивидуалистического и коллективистского подходов к определению семьи, механизмы гармонизации национальных правовых традиций с универсальными стандартами прав человека, развитие медиации и альтернативных форм разрешения семейных споров, а также совершенствование алиментных обязательств с привязкой их минимального размера к прожиточному минимуму.

В нашей республике вопросам совершенствования правового статуса членов семьи и укреплению института семьи уделяется первостепенное государственное внимание. 15 мая 2025 года, поздравляя граждан с Международным днём семьи, Президент Республики Узбекистан

¹ World Population Prospects 2024: Summary of Results / United Nations Department of Economic and Social Affairs, Population Division. – New York : United Nations, 2024. – 58 p. // <https://social.desa.un.org/publications/world-population-prospects-2024-summary-of-results>

²<https://www.unicef.org/press-releases/14-billion-children-globally-missing-out-basic-social-protection-according-latest>

Ш.М. Мирзиёев подчеркнул: «Семья – опора общества, колыбель духовности, символ единства поколений. Наш народ всегда считал семью священной ценностью, прочным фундаментом стабильности»³. Несмотря на принятие СК РУз 1998 года и последующие реформы законодательства, сохраняются проблемы правовой неопределенности статуса фактических брачных отношений (все еще имеются пары репродуктивного возраста, которые состоят в религиозном браке без государственной регистрации), недостаточной регламентации прав расширенных членов семьи, несоответствия минимального размера алиментов реальным потребностям детей, неэффективность системы принудительного исполнения алиментных обязательств – лишь 23,1% получателей алиментов получают их в полном объеме и в установленные сроки, и ограниченности процессуальных механизмов защиты личных неимущественных прав членов семьи.

Данное диссертационное исследование в определенной мере послужит реализации задач, предусмотренных в Конституции Республики Узбекистан (в редакции 2023 года), Семейном кодексе Республики Узбекистан (1998), Гражданском кодексе Республики Узбекистан (1995, 1996), Законах Республики Узбекистан «О гарантиях прав ребенка» от 7 января 2008 года № ЗРУ-139, «О защите женщин от притеснения и насилия» от 2 сентября 2019 года № ЗРУ-561, Указе Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы обеспечения гарантий прав ребенка» от 9 августа 2021 года №УП-6275, Постановлении Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции укрепления института семьи в Республике Узбекистан» от 27 июня 2018 года №ПП-3808, и иных актах законодательства в данной сфере.

Связь исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и способов их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. На сегодняшний день проблема правового статуса членов семьи изучена отечественными правоведами в виде отдельных научных статей, тезисов и частей монографий. Например, Ф.М. Отахужаев, Г.С. Инамджанова, И.Б. Джураева, У.Ш. Шарахметова, Х.Б. Абдурахмонова, Х.Х.Сайдивалиева, Д.И. Бабажанова, Э.Х. Эгамбердиев в своих работах рассматривали вопросы определения понятий семьи и брака, и их правовое последствие, вопросы алиментного обязательства, статус родительства, супружества, проблемы осуществления семейных прав⁴.

³ <https://www.uzdaily.uz/ru/mirziyoev-obrazovanie-kliuch-k-budushchemu-uzbekistana/>

⁴ Отахужаев Ф.М. Ўзбекистон Республикасининг Оила ҳуқуқи. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 380 б.; Инамджанова Г.С. Ота-оналар ва болаларнинг ҳуқуқларини оила ҳуқуқий ҳимоя қилиш муаммолари. дисс. ...-ю.ф.н: Тошкент.:2005. 152 б.; Джураева И.Б. Личные и имущественные права супругов по национальному законодательству и по международному частному праву: Автореф. Дисс. ... канд.юрид.наук. - Т., 2006. - 24 с.; Sharaxmetova U.Sh. Oilaviy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishni takomillashtirish // Yurid. fan. dok. ... diss. (DSc). – Т.: 2025. 278 б.; Абдурахмонова Х.Б. Халқаро ҳусусий ҳуқуқда ота-она ва фарзандлар ўртасидаги

Проблема правового статуса членов семьи широко изучается в работах исследователей стран СНГ. В качестве примера можно привести работы таких исследователей, как М.В. Антокольская, Т.А. Гурко, И.С. Данилова, А.Н. Левушкин, А.М. Нечаева, Д.Н. Никитин, Л.М. Пчелинцева, Н.Н. Тарусина⁵. В качестве учёных, исследовавших актуальные проблемы правового статуса членов семьи в зарубежных странах, можно указать на A. Alstott, Dieter Martiny, S. Gilmore, L. Glennon, Jeremy Loudonback, C.G. Joslin, D. NeJaime, Fabio Martinenghi, C. Mol⁶.

Вместе с тем, несмотря на значительный объём научных исследований по отдельным институтам семейного права, в узбекской правовой науке до настоящего времени отсутствует комплексное монографическое исследование, посвящённое системному анализу правового статуса членов семьи во всей его полноте – от теоретических основ до проблем отдельных категорий субъектов семейных правоотношений с учётом национальной специфики и международных стандартов защиты прав человека.

Связь темы диссертации с планом научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Тема диссертации включена в план научно-исследовательских работ Ташкентского государственного юридического университета и осуществлена в рамках приоритетных направлений научных исследований по теме «Проблемы реформирования семейного законодательства».

Цель исследования заключается в разработке теоретических положений и практических рекомендаций, направленных на совершенствование правового регулирования статуса членов семьи в Республике Узбекистан.

муносабатларнинг тартибга солиниши: Юрид. фан. докт. ... дис. – Т., 2016. – 284 б.; Сайдивалиева Х.Х. Оилавий муносабатларни шартномавий ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш. Юрид. фан. докт. (DSc) ... дисс., Т.: 2025. 327 с.; Бабажанова Д.И. Ота-она қарамоғидан маҳрум бўлган болаларни жойлаштириш шакллари оилавий-ҳуқуқий тартибга солиниши: юрид. фан. фал. док (PhD). дис. ... – Тошкент: 2020.; Эгамбердиев Э.Х. Совершенствование правовых основ расторжения брака в Республике Узбекистан // дисс. ... докт. философ. по юрид. наук. – Нукус.: 2021. С. 200.

⁵ Антокольская М. В. Семейное право [Электронный ресурс]: учебник / М. В. Антокольская. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: Норма : ИНФРА-М, 2013. - 431 с.; Гурко Т.А. Теоретические подходы к изучению семьи. 2-е изд., перераб. и доп. М.: Ин-т социологии РАН, 2016. – 210 с.; Данилова И.С. Институт приемной семьи в системе форм устройства детей, оставшихся без попечения родителей в Российской Федерации: дис. ... канд. юрид. наук. – М.: 2015. – 153 с.; Левушкин А.Н. Правовое регулирование имущественных отношений в семье по законодательству Российской Федерации. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Казань. 2004. 220 с.; Нечаева А.М. Семейное право: учебник для вузов / А.М. Нечаева. 8-е ... М.: ИНФРА-М, 2017. С. 195.; Никитин Д.Н. Правовое регулирование личных неимущественных отношений супругов: вопросы теории и практики. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Курс, 2013. – 184 с.; Пчелинцева, Л.М. Семейное право России: учебник / Л.М. Пчелинцева. – 6-е изд., перераб. – М.: Норма: Инфра-М, 2010.; Тарусина, Н.Н. Семейное право: Очерки из классики и модерна: монография / Н.Н. Тарусина; Ярослав. гос. ун-т. – Ярославль: ЯрГУ, 2009. – 616 с.

⁶ Alstott, Anne L. Private Tragedies? Family Law as Social Insurance // Harvard Law & Policy Review. 2010. Vol. 4. No. 1. P. 3–30.; Dieter Martiny, 'Der neue deutsch-französische Wohlfühlerstand – Ein Beispiel optionaler bilateralen Familienrechtsvereinheitlichung' (2011) 19 ZEuP 577; Gilmore, S., & Glennon, L. (2018). Hayes and Williams' Family Law (6th Edition). Oxford University Press; Oxford; Jeremy Loudonback. Sibling Connections: States Take Different Approaches to Preserving Family Bonds in Foster Care. The Imprint. 2023; Joslin, C. G., & NeJaime, D. (2023). How Parenthood Functions. Columbia Law Review, 123(2), 319–434; Martinenghi, Fabio, De Facto Marriage: When Ending a Cohabitation Costs as Much as a Divorce (October 16, 2020). Life Course Centre Working Paper No. 2020-23; Mol, C. (2019). Children's Representation in Family Law Proceedings: A Comparative Evaluation in Light of Article 12 of the United Nations Convention on the Rights of the Child. The International Journal of Children's Rights, 27(1), 66-98.

Задачи исследования:

исследовать понятие, правовую природу и структуру правового статуса членов семьи;

исследовать историческое развитие правового регулирования статуса членов семьи в семейном законодательстве Республики Узбекистан;

провести научно-практическую характеристику личных неимущественных и имущественных прав и обязанностей членов семьи, определить их правовую природу и особенности осуществления;

исследовать проблемы осуществления и защиты прав несовершеннолетних детей как особой категории членов семьи;

проанализировать особенности правового статуса супругов, включая законный режим имущества и фактические брачные отношения;

исследовать правовое положение иных членов семьи (бабушек, дедушек, братьев, сестер, фактических воспитателей) и проблемы социальной защиты;

изучить международный опыт правового регулирования статуса членов семьи и рекомендации международных организаций;

выявить проблемы правового регулирования и правоприменительной практики в сфере семейных отношений и разработать конкретные предложения по совершенствованию семейного законодательства страны.

Объектом исследования являются общественно-правовые отношения, складывающиеся при определении и реализации правового статуса различных категорий членов семьи в Республике Узбекистан.

Предметом исследования является семейное законодательство Республики Узбекистан, правоприменительная практика судов, законодательство и опыт зарубежных стран, концептуальные подходы и научно-теоретические взгляды в сфере семейного права.

Методы исследования. В ходе исследования применялись системно-структурный метод, диалектический метод, формально-юридический метод, историко-правовой метод, сравнительно-правовой метод, формально-логический метод, статистический метод, социологический метод.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

обосновано, что законодательное закрепление места жительства несовершеннолетних лиц по месту жительства их законных представителей является необходимым элементом правового статуса несовершеннолетних членов семьи, поскольку определённость в данном вопросе обеспечивает реализацию права ребёнка на семейное воспитание, гарантирует надлежащее осуществление законными представителями своих обязанностей по защите прав и интересов несовершеннолетних и устраняет правовую неопределённость в административных, жилищных и семейных правоотношениях с участием детей, находящихся под опекой и попечительством;

обосновано, что отобрание ребёнка у родителей или иных лиц при непосредственной угрозе его жизни и здоровью является самостоятельным видом индивидуальных мер защиты личных неимущественных прав несовершеннолетних членов семьи, обусловленным принципом приоритетной защиты прав и интересов несовершеннолетних;

обосновано, что способы воспитания детей, исключая пренебрежительное, жестокое и унижающее человеческое достоинство обращение, должны быть закреплены в семейном законодательстве в качестве самостоятельного принципа осуществления родительских прав, поскольку отсутствие прямого законодательного запрета физических наказаний создаёт правовую лакуну, позволяющую оправдывать насилие в отношении детей традициями воспитания, что противоречит международным стандартам защиты прав ребёнка и конституционному принципу охраны детства;

обосновано, что исполнение судебных решений об изъятии ребёнка не может осуществляться в организациях дошкольного и общего среднего образования, поскольку проведение подобных принудительных действий в образовательной среде нарушает психологическую безопасность ребёнка и противоречит принципу наилучших интересов ребёнка, закреплённому в Конвенции ООН о правах ребёнка.

Практические результаты исследования заключаются в следующем:

обоснована необходимость признания за семьей элементов правосубъектности в определенных правоотношениях (социальное обеспечение, жилищные отношения, налогообложение) с законодательным закреплением случаев и пределов такой правосубъектности;

обоснована необходимость введения института независимого представителя интересов ребенка в судебных процессах при конфликте интересов между ребенком и его законными представителями;

обоснована необходимость законодательного признания ограниченных правовых последствий длительных фактических брачных отношений (право на компенсацию документально подтвержденного вклада в имущество, ограниченные алиментные обязательства при наличии общих детей) при сохранении привилегированного статуса зарегистрированного брака;

обоснована необходимость пересмотра минимального размера алиментов на несовершеннолетних детей с привязкой к прожиточному минимуму ребенка (не менее 50% прожиточного минимума) вместо действующей привязки к МРОТ (26,5%), который не обеспечивает реальных потребностей ребенка в современных экономических условиях;

обоснована необходимость законодательного закрепления презумпции желательности сохранения sibлинговых связей при устройстве детей, оставшихся без попечения родителей, и при определении места жительства детей после развода родителей;

обоснована необходимость расширения круга лиц, признаваемых фактическими воспитателями с правом на алименты, путем снижения минимального срока воспитания с пяти до трех лет при наличии совокупности условий (непрерывность, надлежащий характер, уважительные причины невозможности пятилетнего срока, устойчивые семейные отношения).

Достоверность результатов исследования подтверждается использованием соответствующей методологии научного познания, проведением сравнительно-правового анализа опыта зарубежных стран с нормативно-правовыми актами национального законодательства, систематическим анализом отечественной и зарубежной научной литературы,

документов и рекомендаций международных организаций, исследованием правоприменительной практики судов Республики Узбекистан, а также обоснованностью разработанных предложений по совершенствованию законодательства с точки зрения их соответствия международным стандартам защиты прав человека в семейных отношениях и национальной специфике правовой системы Республики Узбекистан.

Научная и практическая значимость результатов исследования. Научная значимость результатов исследования заключается в том, что полученные на основе научно-теоретического анализа результаты могут быть использованы при проведении научных исследований в данной сфере, законотворчестве, правоприменительной практике, толковании норм законодательства, направленных на регулирование семейных отношений по вопросам правового статуса членов семьи, определения понятий семьи и члена семьи, правового положения несовершеннолетних детей, супругов и иных членов семьи, подготовке комментариев к законам.

Практическая значимость результатов исследования заключается в возможности их использования в законотворческой деятельности, в том числе в процессе разработки нормативно-правовых актов и внесении в них изменений и дополнений в части совершенствования правового статуса членов семьи, в совершенствовании правоприменительной практики при рассмотрении судами семейных споров, а также в обучении дисциплин в сфере семейного и гражданского права в высших образовательных учреждениях.

Внедрение результатов исследования. На основе полученных научных результатов исследования по совершенствованию правового статуса членов семьи в семейном праве Республики Узбекистан были разработаны и внедрены следующие предложения:

предложения о том, что местом жительства несовершеннолетних лиц в возрасте до четырнадцати лет или лиц, находящихся под опекой, считается место жительства их законных представителей – соответственно родителей (одинокоего родителя), усыновителей или опекунов, а местом жительства несовершеннолетних лиц в возрасте от четырнадцати до шестнадцати лет или лиц, находящихся под попечительством, считается место жительства их законных представителей – соответственно родителей (одинокоего родителя), усыновителей или попечителей было использовано при разработке частей третьей и четвертой статьи 4 Закона Республики Узбекистан «О регистрации граждан Республики Узбекистан, иностранных граждан, и лиц без гражданства по месту жительства и месту пребывания» от 10 июля 2025 года №ЗРУ-1074 (акт Комитета Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам развития демократических институтов и гражданского общества от 13 апреля 2026 года №04/3-07-08). Внедрение данных предложений послужило законодательному закреплению правовых гарантий несовершеннолетних детей в части определения их места жительства по месту жительства законных представителей, что обеспечивает правовую определённость в правоотношениях с участием несовершеннолетних;

предложение о том, что отображение ребенка, пострадавшего от насилия, и ребенка, находящегося под риском совершения насилия в отношении него, у

родителей (одного из них) или у других лиц, на попечении которых он находится, при непосредственной угрозе жизни ребенка или его здоровью является видом индивидуальных мер по защите детей от всех форм насилия было использовано при разработке статьи 23 Закона Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия» от 14 ноября 2024 года №ЗРУ-996 (акт Комитета Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам развития демократических институтов и гражданского общества от 13 апреля 2026 года №04/3-07-08). Внедрение данного предложения послужило созданию комплексной системы индивидуальных мер защиты прав несовершеннолетних членов семьи, обеспечив оперативное реагирование государства на случаи насилия в отношении детей;

предложение о том, что родители (лица, их заменяющие) в целях защиты детей от всех форм насилия принимают меры по защите жизни и здоровья детей, проявлению любви и заботы для полноценного и всестороннего гармоничного развития ребенка, создание условий для реализации ребенком своих возможностей и поиска своего места, удовлетворения потребности ребенка по принадлежности, а также о том, что способы воспитания детей должны исключать пренебрежительное, жестокое, грубое, унижающее человеческое достоинство обращение, оскорбление или эксплуатацию детей было использовано при разработке статьи 43 Закона Республики Узбекистан «О защите детей от всех форм насилия» от 14 ноября 2024 года №ЗРУ-996 (акт Комитета Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан по вопросам развития демократических институтов и гражданского общества от 13 апреля 2026 года №04/3-07-08). Внедрение данного предложения послужило законодательному закреплению обязанностей родителей по защите личных неимущественных прав несовершеннолетних членов семьи и формированию нетерпимого отношения общества к насилию и жестокому обращению с детьми в семье;

предложение о том, что исполнение действий по изъятию ребёнка и передаче его другому лицу (лицам) не может осуществляться в организациях дошкольного и общего среднего образования было использовано при разработке законопроекта Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в отдельные законодательные акты Республики Узбекистан в связи с усилением ответственности за давление и насилие в отношении детей» (ID–5969) в части дополнения статьи 89 Семейного кодекса Республики Узбекистан частью четвертой (акт Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан от 29 апреля 2026 года №27/2-171-26). Внедрение данного предложения послужило дополнительной гарантией защиты прав несовершеннолетних от возможных злоупотреблений при исполнении судебных решений об изъятии ребёнка, исключив проведение указанных действий в образовательной среде, что обеспечивает психологическую безопасность ребёнка.

Апробация результатов исследования. Результаты исследования апробированы на 4 научных мероприятиях, в том числе на 2 международных и 2 республиканских научно-практических конференциях.

Опубликование результатов исследования. Всего по теме исследования опубликовано 7 научных работ, в том числе 3 научных статей (1 в зарубежном издании).

Структура и объем диссертации. Диссертация состоит из введения, трёх глав, заключения, списка использованной литературы. Объем диссертации составляет 155 страниц.

ОСНОВНОЕ СОДЕРЖАНИЕ ДИССЕРТАЦИИ

В части **введения** диссертации (аннотации докторской диссертации) обоснованы актуальность и востребованность темы диссертации, освещена связь исследования с основными приоритетными направлениями развития науки и технологии республики, степень изученности проблемы, связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация, цели и задачи, объект и предмет, методы, научная новизна, практические результаты, достоверность, научная и практическая значимость, внедрение, апробация, опубликованность результатов исследования, структура и объем диссертации.

В первой главе диссертации **«Теоретико-правовые основы правового статуса членов семьи»** анализируются вопросы понятия и правовой природы семьи и члена семьи как субъектов семейного права, классификация членов семьи и дифференциация их правового статуса, а также принципы правового регулирования статуса членов семьи.

